



YAPONIYADA TA'LIM TIZIMI MEYDZI DAVRIDA

Nizomiy nomidagi TDPU 3-bosqich talabasi

Murtazayeva Fotima

Annotatsiya. Meydzi davridagi ta'lim islohotlari, Yaponiyani g'arb andozasi asosida zamonaviy davlatga aylantirish yo'lidagi urinishlarhaqida so'z yuritiladi. Jumladan 1872-yilda qabul qilingan "Ta'lim buyrug'i" (Gakusei) islohoti orqali ta'lim tiziming tubdan o'zgartirilishi va Yaponiyada birinchi marta majburiy boshlang'ich ta'lim tiziminingjoriy etilishi natijasidahar bir bola 6 yoshdan 14 yoshgacha ta'lim olish huquqiga ega bo'lishi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Meydzi davri, feodal tuzum, "Ta'lim buyrug'i" (Gakusei), ilg'or texnologiyalar, modernism, intellektual kuch, Monbusho (Ta'lim, fan va madaniyat vazirligi)

Ma'lumki Yaponiyada 1867—1868 yillarda dehqonlar, shahar kambag'allari, savdo-sanoat korchalonlari, dvoryanlarning quyi tabaqalari, saroy aslzodalari va muxolifatdagi ba'zi yirik zodagonlardan iborat keng omma syogunlarga qarshi chiqadi. Natijada burjua inqilobi — "Meydzi inqilobi" sodir bo'ldi. Syogun hukumati ag'darildi va hokimiyat imperator Mutsuxito (1867—1912 ylarda hukmronlik qilgan) qo'liga o'tgan. Shu davrdan boshlab Yaponiya imperator va uning hukumati boshchiligida tub ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar yo'liga o'tib, tezlashgan modernizatsiya orqali g'arb davlatlari darajasiga yetishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Meydzi davri (1868-1912) Yaponianing modernizatsiya yo'lidagi eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu davrda Yaponiya feodal tuzumdan zamonaviy davlatga aylanish yo'lida katta islohotlar amalga oshirdi. Ta'lim islohotlari esa ushbu o'zgarishlarning asosiy qismini tashkil etdi. Ushbu tezisda Meydzi davridagi ta'lim islohotlarining sabablari, ularning mazmuni va mamlakat rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Tokugava shogunati davrida Yaponiyada ta'lim cheklangan edi va asosan samuraylor sinfiga qaratilgan bo'lib, mamlakatning boshqa qatlamlari bu imkoniyatdan kam foydalangan. Biroq, 1868-yilda Meydzi imperatorining hokimiyatga kelishi bilan



Yaponiya o'zini dunyoga ochdi va G'arb davlatlari bilan raqobatlashish uchun kuchli davlat tuzishni maqsad qildi. Zamonaviy davlatni qurish uchun esa har tomonlama bilimli, texnologiyalarni o'zlashtira oladigan va intellektual kuchga ega jamiyat zarur edi. Shu sababdan ta'lif tizimining islohoti ustuvor yo'nalishlardan biri bo'ldi. Meydzi davridagi ta'lif islohotlari quyidagi maqsadlarni o'z ichiga olgan:- Hamma uchun ta'lif imkoniyatini yaratish: Yaponiya jamiyatining barchaqatlamlari uchun ta'lif imkoniyatlari ochiq bo'lishi kerak edi.

-G'arbiy bilimlarni o'zlashtirish: Yaponiyaning ilmiy va texnologik taraqqiyotini tezlashtirish uchun G'arbiy davlatlarning tajribasini o'rganish va tatbiq etish zarur edi.-Yaponiya milliyruhiyatini saqlash: G'arb texnologiyalarini o'zlashtirgan holda, milliy qadriyatlar va an'analarni saqlash muhim edi. 1868 yilda boshqaruvni o'z qo'liga olgan yangi hukumat ta'lifni davlatning markaziy vazifalaridan biriga aylantirdi. Dastlab 1871-yilda Monbusho(Ta'lif,fan va madaniyat vazirligi) tashkil qilindi. 1872-yilda qabul qilingan "Ta'lif buyrug'i" (Gakusei) islohoti orqali ta'lif tizimi tubdan o'zgartirildi. Ushbu islohotlar Yaponiyada birinchi marta majburiy boshlang'ich ta'lif tizimini joriy etdi va har bir bola 6 yoshidan 14 yoshgacha ta'lif olish huquqiga ega bo'ldi. 1872-yilda Tokyoda dastlabki ayollar maktabi tashkil topdi. Yaponiya ta'lif tizimiga katta ta'sir ko'ssatgan omillardan biri G'arbiy davlatlarning tajribasi edi. Meydzi davri boshida Yaponiya hukumati ko'plab yapon talabalari va mutaxassislarini G'arb davlatlariga, xususan, AQSh va Yevropaga yubordi. Bu talabalarning vazifasi G'arbning ilg'or texnologiyalari va bilimlarini o'rganish, shuningdek, ularni Yaponiyaga olib kelish edi. G'arbiy ilm-fan va texnologiyalarni o'zlashtirish maqsadida ko'plab xorijiy o'qituvchilar Yaponiyaga taklif etildi. Shu maqsadda 1877-yilda Tokio Universiteti tashkil qilinib, fanlaring rivojlanishiga asos solindi. Shu bilan birga, hukumat ta'lif islohotlarida milliy qadriyatlarni saqlab qolishga alohida e'tibor berdi. Ta'lif tizimi milliy g'urur va an'anaviy qadriyatlarni singdirish orqali yosh avlodda vatanparvarlik ruhini kuchaytirishga yo'naltirildi. Bu esa G'arbdan olingan bilimlar va texnologiyalar Yaponiyaga begona bo'lib qolmasdan, mahalliy sharoitga moslashtirilishiga xizmat qildi. Meydzi davridagi ta'lif



islohotlari Yaponiya tarixidamodernizm davrini boshlab berdi. Natijada, 20 yil ichida savodsizlik darajasi keskin kamaydi va mamlakat intellektual taraqqiyotga erishdi. Bu ta'lim tizimi orqali yetishtirilgan mutaxassislar Yaponiya sanoatining rivojlanishiga, texnologik yuksalishiga va xalqaro maydonda raqobatbardoshdavlatga aylanishiga katta hissa qo'shdilar. Meydzi davridagi ta'lim islohotlari Yaponiyaning zamonaviy davlat sifatida shakllanishiga katta hissa qo'shdi. G'arb texnologiyalari va bilimlarini o'zlashtirgan holda, Yaponiyada kuchli ta'lim tizimi yaratildi. Bu esa mamlakatning sanoat, ilm-fan va texnologiyalar sohalarida jadal rivojlanishini ta'minladi. Ushbu islohotlar Yaponiya jamiyatini zamonaviylashtirish bilan birga, milliy qadriyatlar va an'analarni saqlab qolishga ham katta e'tibor qaratdi, bu esa Yaponiya rivojlanishining muhim omiliga aylandi.

ADABIYOTLAR:

1. Irokawa, D. (1985). The culture of the Meiji period.
2. Princeton University Press. Shively, D. H. (1971).
3. The Japanization of the middle Meiji. Tradition and modernization in Japanese culture, 77-119.
4. Nagai, M. (1971). Westernization and Japanization: the early Meiji transformation of education.
5. Tradition and modernization in Japanese culture, 35-76.

Internet sahifasi.

<https://zamon.uz/detail/meyji-inqilobi---yapon-mojizasi-talim>